



AMIR XUDOYBERDINING ARUZ VAZNIDA YOZILGAN G'AZALLARI TAHLILI

Mustafayeva Denora

SHDPI Tillar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-fevral 2023 yil

Ma'qullandi: 16-fevral 2023 yil

Nashr qilindi: 21-fevral 2023 yil

KEY WORDS

vazn, bahr, ramal, hazaj, musamman, musaddas, bayt, rukn, maqsur, mahzuf, musabbag', solim, hijo.

ABSTRACT

Mazkur maqolada shoir Amir Xudoyberdi ijodiga mansub g'azallar tahlil qilingan bo'lib, ular aruziy jihatdan tahlil qilishga harakat qilingan.

Har bir ijodkor ko'nglidagi quvonchini ham, dardini ham qog'ozga muhrlaydi va kitobxonlar qalbida yashaydi. O'zbek she'riyatida doimo ko'ngilga qarab ish tutadigan, ko'ngli buyurgan narsalarni qog'ozga tushiradigan, hayot so'qmoqlaridan yurib, o'z yo'lini topgan, mehr-muhabbat tuyg'ulari jo bo'lgan she'rlari muxlislari qalbida yashaydigan iste'dodli shoirlarimizdan biri Amir Xudoyberdidir. U barmoq va aruz vaznlarida samarali qalam tebratib kelyapti. Shoir aruz vaznida ga'zallar, muxammaslar bitgan. Bilamizki, aruz vaznida 19 bahr mavjud, Amir Xudoyberdi ijodida faqat ramal va hazaj bahrlarini uchratishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu bahrlar sertarmoqliligi bilan ham ajralib turadi. Ruknlarning bir misrada 4, bir baytda 8 marta takrorlanishidan musamman shakli yuzaga keladi. Agar har bir misradagi rukn to'liq holatda takrorlansa solim hisoblanadi. Ramal bahridagi birinchi vazn ramali musammani solim deb ataladi. Ya'ni foilotun rukni mazkur baytda 8 marta hech qanday o'zgartirishlarsiz, to'liq holda takrorlanadi. Taqtiyi quyidagicha:

foilotun foilotun foilotun foilotun

-V - -/ -V - -/ -V - -/ -V - -

Amir Xudoyberdi ijodida ramal bahri musamman vaznlarining mahzuf, maqsur turlari uchraydi. Ramali musammani mahzuf vazni dastlabki uch ruknning foilotun, so'nggi to'rtinchi ruknning foilun tarzida kelishidan yaraladi. Ya'ni vaznning taqtiyi:

foilotun foilotun foilotun foilun

-V - - / -V - - / -V - - / -V -

Masalan:

Haq yo'lidur adl-u nusrat kim anga so'lik erur,

-V - -/ -V - -/ -V - -/ -V -

Yetmish ikki ming mashaqqat mulkiga mo'lik erur [1:98].

-V - -/ -V - -/ -V - -/ -V -

Bevafo o'lamda, ey dil, bir vafodor yor kerak,

- V - -/ - V - -/ - V - -/ - V -

Kim vafodor, ango bizdek mahrami asror kerak [3:251].

-V - -/ - V - -/ - V - -/ - V -

Yonima dil dora, bu oq shom seningdek hur kelur,

- V - - / - V - -/ - V - -/ - V -

Hur desam hur dan ziyod qiz, borlig'i bil lur kelur [1:99].

-V - -/ - V - -/ - V - -/ - V -

Bo'zlama, ey, dil, magardur bo'zlagan to'r g'ay sening?

- V - -/ - V - -/ - V - -/ - V -

Bo'zlashingdan ko'hna dunyo dashti yo bo'l g'ay sening [1:103]?

-V - -/ - V - -/ - V - -/ - V -

Ey, falak, sen din tilak, tuy g'ularimni asragil,

-V - -/ -V - -/ -V - -/ -V -

Asragil, deb chekkan ul qay g'ularimni asragil [2:85]

-V - -/ -V - -/ -V - -/ -V -

Ramali musammani maqsur foilotun rukni 3 marotaba takrorlanib, 4-rukn foilon shaklida keladi. Aynan oxirgi rukn - foilonning vazndagi nomi maqsur bo'lganligi uchun, vazn ramali musammani maqsur deb ataladi. Taqtiyi quyidagicha:

foilotun foilotun foilotun foilon

-V - -/ -V - -/ -V - -/ -V ~

Masalan:

Eshigim qoq mang bu kech, kul bamda Jannat huri bor,

-V - - / - V - -/ - V - -/ - V ~

Hur ila mast miz tamom, jom da sharobning zo'ri bor [3:272].

-V - -/ - V - -/ - V - -/ - V ~

Ijodkor ijodida ramal bahri musaddas vaznlarining faqat mahzuf turi uchraydi. Ramal bahrining musaddas ruknli vaznlari xuddi musamman vaznlar singari tuzilishga ega bo'lib, faqatgina misra tarkibida bir ruknning kam ekanligi bilan farqlanadi. Taqtiyi:

Foilotun foilotun foilon

-V - -/ -V - -/ -V -

Masalan:

Lab burib noz qildilar: Hay -hay Odam,

-V - -/ -V - -/ -V -

Es-hushingni yeb qo'yibsani sen bu dam [1:182].

-V - -/ -V - -/ -V -

Yana guldani qirg'a qizga qaytdi gul,

-V - -/ -V - -/ -V -

Qirg'a qizga kim, o'zin tarqatdi gul [1:186].

-V - -/ -V - -/ -V -

Oh, parilar ketdilar tashlab darig',

-V - -/ -V - -/ -V -

Yuzlarim gul zorida gul lar sariq [1:189].

-V - -/ -V - -/ -V -

Yuqorida Amir Xudoyberdining ramal bahrida yozilgan g'azallariga to'xtaldik, endi esa hazaj bahrida yozilgan g'azallariga to'xtalamiz. Hazaj bahriga doir musamman vaznlarning dastlabkisi hazaji musammani solim bo'lib, uning taqtiyi quyidagicha:

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -

Masalan:

Umid osmo niga boqsam ajib yulduz charaqlabdi,

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -

Aning ko'rki ziyosidin falak sahni yaraqlabdi [3:271].

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -

Malohat ko'r guzub ketdi, ko'ngul qasrin buzib ketdi,

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -

Bilolmam bu xarobot taq dirim bo'lgay qachon obod [1:189].

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -

Ne bo'ldi, ey ko'ngil, senda halovatdan asar yo'qdir,

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -

Chekursan ranj kutilgan ul saodatdan xabar yo'qdir [3:259].

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -

Ko'zi yoshli bu gullarni nechun soldi lar bozora?

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -

Solibdur yuz lari g'amdin chidolmay no mus-u ora [1:114].

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -

Hazaji musammani musabbag' vazni hazaji musammani solimdan faqatgina oxirgi ruknning o'zgarishga uchrashi (cho'ziq hijoning o'ta cho'ziq hijoga almashishi) bilan farqlanadi. Taqtiyi quyidagicha:

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - ~

Amir Xudoyberdining quyidagi g'azallari hazaji musammani musabbag' vaznida yozilgan:

Ajib gulshan, gulisoro, bulbullar „chah- chah"i mumtoz,

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - ~

Sochib ishq sir rini g'uncha uyolib bosh egibdur boz [1:202].

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - ~

Agar ishq o' ti kuydursa, parilar ham to'kar ko'z yosh,

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - ~

Agar yor suy sa-suydursa, parilar ham to'kar ko'z yosh [1:210].

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - ~

Endi hazaj bahrining musaddas vaznlarida yozilgan g'azallariga to'xtalamiz. Quyidagi g'azallarda mafoiylun, mafoiylun, fauvlun ruknlari takroridan hazaji musaddasi mahzuf vazni kelib chiqadi. Uning taqtiyi quyidagicha:

Mafoiylun mafoiylun fauvlun

V - - -/ V - - -/ V - -
 Parizod nu ri iymonim, jahonim,
 V - - -/ V - - -/ V - -
 Chohlarg'a sig' magan ganji nihonim [1:211].
 V - - -/ V - - -/ V - -
 Yetishdik toq qa. Birdan ko'p di dahshat:
 V - - -/ V - - -/ V - -
 Parizodning oyog'in o'p di Vahshat [1:200].
 V - - -/ V - - -/ V - -
 Parizod am ri-la yumdim ko'zimni ,
 V - - -/ V - - -/ V - -
 Qanoti bor dayin sezdim o'zimni [1:196].
 V - - -/ V - - -/ V - -

Mafoiylun, mafoiylun, mafoiyl ruknlari takroridan tashkil topgan hazaji musaddasi maqsur vaznida yozilgan g'azallar ham uchraydi. Mazkur vazn yuqorida keltirilgan hazaji musaddasi mahzuf vaznidan oxirgi ruknda sodir bo'lgan o'zgarish bilan farqlanadi. Uning taqtiyi quyidagicha:

Mafoiylun mafoiylun mafoiyl
 V - - -/ V - - -/ V - ~
 Urukni ol di barmoqdin parizod,
 V - - -/ V - - -/ V - ~
 Do'nib aslim ga, bo'ldim band dan ozod [1:202].
 V - - -/ V - - -/ V - ~
 Ko'zingni och, dedi, ochdim biyobon,
 V - - -/ V - - -/ V - ~
 Edi borlik- kuyardi jiz g'anak jon [1:197].
 V - - -/ V - - -/ V - ~

Xulosa qilib aytganda, Amir Xudoyberdi aruz vaznida ijod qilib o'z badiiy tafakkur qudratini namoyon qilib kelmoqda. G'azallardagi ohangdorlik, ma'no va mazmun kitobxonlarni o'ziga jalb etmay qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амир Худойберди. Эврилиш. Сайланма. - Т. "Янги аср авлоди", 2002
2. Амир Худойберди. Девоналармиз. Шеърлар. - Т. "Мусика", 2014
3. Амир Худойберди. Таахаммул. Сайланма. - Т. "Мусика", 2015
4. Амир Худойберди. Хазрати узбек. Шеърлар. - Т. "Мусика", 2020
5. Дилнавоз Юсупова. Аруз алифбоси. – Т. "Академнашр", 2015